O'ZBEKISTONDA LOYIHA MENEJERLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Maxkamova Nozima Sayfulla qizi
O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi,
Moliya va moliyaviy texnologiyalar fakulteti,
Loyiha boshqaruvi yo'nalishi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22709465

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlari uchun yuqori malakali loyiha menejerlarini tayyorlash hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Milliy mehnat bozorida loyiha boshqaruvi mutaxassislariga bo'lgan real talab va oliy ta'lim tizimidagi mavjud o'quv dasturlari o'rtasidagi nomutanosibliklar tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida loyiha menejerlarining professional salohiyatini baholashda xalqaro IPMA, PMI va PMBOK standartlarining kompetensiyaviy modellari o'rganilib, ularni milliy ta'lim muhitiga integratsiya qilishning uslubiy jihatlari ko'rib chiqilgan. Mahalliy korxonalar va davlat muassasalarida investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda boshqaruv kadrlarining soft soft skill va hard skill ko'nikmalarini mutanosib rivojlantirish zarurati asoslab berilgan. Maqola yakunida loyiha menejerlarini tayyorlash samaradorligini oshirish, ta'lim dasturlarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish hamda sohada dual ta'lim modellarini joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: loyiha boshqaruvi, kasbiy kompetensiya, IPMA, PMBOK, kadrlarni tayyorlash samaradorligi, soft skills, hard skills, raqamli iqtisodiyot, ta'lim integratsiyasi, boshqaruv ko'nikmalari.

Kirish

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan shiddatli transformatsiya jarayonlari va yuqori noaniqlik muhiti har qanday strategik dastur va investitsiya loyihalarini boshqarishda an'anaviy yondashuvlardan voz kechishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hamda davlat dasturlarining natijadorligiga uzviy bog'liqdir. Har yili mamlakatimizda umumiy qiymati milliardlab dollarga teng bo'lgan minglab hududiy va tarmoq investitsiya loyihalari ishga tushirilmoqda. Biroq, xalqaro amaliyot xususan, Project Management Institute - PMI tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, dunyo miqyosida yirik loyihalarning qariyb 14-15 foizi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, 43 foizi belgilangan muddatdan kechikadi va 33 foizi byudjetdan chiqib ketadi. Mahalliy amaliyotda ushbu ko'rsatkichlarning salbiy ta'siri ko'p jihatdan boshqaruv tizimida zamonaviy xalqaro standartlarga ega bo'lgan professional loyiha menejerlarining yetishmasligi bilan izohlanadi.

O'zbekistonda boshqaruv kadrlarining yangi avlodini shakllantirish va loyihaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida oliy ta'lim bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish barobarida, ta'lim dasturlarini mehnat bozori va xalqaro andozalar talablariga to'liq moslashtirish vazifasi belgilangan. Strategiyaning iqtisodiy islohotlar qismida har bir tarmoq va hududiy loyihalarning samaradorligini (KPI) oshirish, investitsiyalarni jalb qilish jarayonlarini to'liq

raqamlashtirish mexanizmlari ilgari surilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarda investitsiya loyihalarini boshqarish va uning samaradorligini nazorat qilish tizimini takomillashtirishga doir qator qarorlari ijrosi bevosita loyiha menejerlarining kasbiy kompetensiyalariga tayanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan yalpi investitsiyalar hajmi yil sayin o'sib bormoqda, ammo ushbu mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishi (ROI - Return on Investment) loyiha menejmenti sifatiga bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda milliy mehnat bozorida nafaqat IT va qurilish sohalarida, balki davlat boshqaruvi, bank-moliya va sanoat tarmoqlarida ham professional loyiha menejerlariga bo'lgan taqchillik sezilmoqda.

Mahalliy oliy ta'lim muassasalarida loyiha boshqaruvi yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimining mavjud holati bugungi kun korxonalari va xorijiy investorlar qo'yayotgan talablarga to'liq mos kelmayapti. Akademik dasturlarning ko'p hollarda an'anaviy funksional menejment nazariyalari bilan cheklanib qolgani, talabalarda "soft skills" shaxsiy yetakchilik, jamoani shakllantirish va inqirozli vaziyatlarni boshqarish hamda "hard skills" loyiha byudjeti, xavf-xatarlarni matematik modellashtirish, MS Project, Jira kabi dasturiy vositalar bilan ishlash ko'nikmalarining tizimli shakllanmasligiga olib kelmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun loyiha menejerlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish, ta'lim tizimida xalqaro standartlarni milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirgan holda integratsiya qilish metodologiyasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharxi

Loyiha menejerlarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularni tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ta'lim samaradorligini oshirish masalalari zamonaviy iqtisodiyot fani va institutsional boshqaruv nazariyasida fundamental yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining chuqurlashishi va investitsiyaviy faollikning ortishi natijasida, loyihaviy yondashuv orqali boshqaruv samaradorligini oshirish masalasi mahalliy olimlar va yetakchi tadqiqotchilar tomonidan ham turli jihatlardan tizimli ravishda o'rganib kelinmoqda.

Xususan, milliy iqtisodiyot tarmoqlarida loyiha menejmenti tizimini institutsional joriy etish va ushbu jarayonda kadrlar salohiyatini oshirishning strategik masalalari Aliev (2024) tomonidan chuqur tahlil qilingan. Olim o'z izlanishlarida korxonalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va innovatsion loyihalarni muvaffaqiyatli yakunlash bevosita korxonalardagi professional kadrlar zaxirasiga hamda ularning xalqaro standartlar asosida o'qitilganlik darajasiga bog'liqligini matematik va empirik modellar yordamida asoslab beradi. Alievning fikricha, loyihalarni an'anaviy ma'muriy usullar bilan boshqarish davri o'tib bo'ldi, endilikda har bir tarmoq xalqaro sertifikatlangan menejerlarga muhtojdir.

O'zbekistonda biznes muhiti va tadbirkorlik subyektlarida loyihalarni strategik rejalashtirish hamda jalb qilingan xorijiy va mahalliy investitsiyalarning uzoq muddatli samaradorligini ta'minlash borasidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar Tojiev (2022) ishlarida o'z aksini topgan. Tojiev loyihalarni boshqarishda faqatgina moddiy, texnik va moliyaviy resurslarni optimallashtirish yetarli emasligini, balki inson kapitalini to'g'ri yo'naltirish, loyiha jamoasini professional psixologik va funktsional jihatdan shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirish eng ustuvor omil ekanligini ilgari suradi. Uning tadqiqotlarida loyiha muvaffaqiyatining 60 foizdan ortig'i bevosita loyiha rahbarining jamoani boshqarish mahoratiga bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan.

Kadrlar kompetensiyasini ko'p faktorli baholash, oliy ta'lim tizimini mehnat bozorining jadal o'zgaruvchan talablariga muvofiqlashtirish va oliy ma'lumotli mutaxassislarda "soft skills" (shaxsiy-yetakchilik, kommunikativlik, muzokaralar olib borish va inqirozli vaziyatlarda mas'uliyatni bo'yinga olish) hamda "hard skills" loyiha byudjeti, grafiklar bilan ishlash, texnik asboblar ko'nikmalari mutanosibligini ta'minlash masalalari Karimov (2023) tomonidan batafsil tadqiq etilgan. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, mahalliy oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv kadrlarini tayyorlashning metodologik asosi tubdan qayta ko'rib chiqilishi lozim. U talabalarda shunchaki yodlangan nazariy bilimlar emas, balki amaliy keyslar (case-study) va biznes-simulyatsiyalar orqali real ishlab chiqarish muammolarini hal qilish qobiliyatini shakllantirish mexanizmlarini taklif etadi va bu orqali ta'lim samaradorligini oshirish indeksini ishlab chiqqan.

Raqamli iqtisodiyot va sanoat 4.0 sharoitida loyihalarni boshqarishning zamonaviy axborot-dasturiy vositalari MS Project, Jira, Agile, Scrum, Kanban bilan ishlash va menejerlarning texnik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari Gulyamov (2021) ilmiy maktabi doirasida batafsil yoritilgan. Gulyamov korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonlarini va IT-loyihalarni boshqaradigan mutaxassislarning maxsus axborot-teknologik kompetensiyalarini tizimli oshirish modelini asoslab bergan. U o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilmasdan turib, zamonaviy bozorda raqobatlasha oladigan loyiha menejerini tayyorlash mutlaqo imkonsiz ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Xuddi shuningdek, boshqaruv tizimida xalqaro tajribalarni o'rganish va investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish jarayonlarida kadrlar malakasini baholash mezonlari Raximov (2023) ilmiy maqolalarida tahlil qilingan. Muallif loyiha menejerlarining bilimini baholashda milliy test tizimini xalqaro andozalarga yaqinlashtirish zarurati haqida to'xtalib o'tgan.

Ushbu keng qamrovli mahalliy adabiyotlar tahlili va ilmiy izlanishlar sharhi shuni ko'rsatadiki, garchi mamlakatimizda loyiha boshqaruvi, inson resurslarini rivojlantirish va menejment kadrlarini o'qitish bo'yicha salmoqli ilmiy ishlar qilingan bo'lsa-da, aynan xalqaro miqyosda tan olingan IPMA, PMI va PMBOK standartlarini milliy OTMlarning o'quv dasturlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilish mexanizmlari, ta'lim samaradorligini oshirishning aniq metodologik ko'rsatkichlari hamda loyiha menejerlarini tayyorlash samaradorligini baholash tizimi yaxlit, tizimli va konseptual tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Mahalliy olimlarning ishlarida ushbu muammo asosan tarqoq yoki faqat bitta tarmoq (masalan, faqat IT yoki faqat qurilish) doirasida ko'rib chiqilgan. Aynan mana shu uslubiy bo'shliq va ilmiy ehtiyoj ushbu tadqiqot ishining yo'nalishini, uning dolzarbligini hamda ilmiy yangiligini belgilab beradi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotning uslubiy poydevorini loyiha menejerlarini tayyorlash samaradorligini baholash va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks hamda tizimli yondashuv tashkil etadi. Izlanish jarayonida nazariy prinsiplarni amaliy tahlil bilan uzviy bog'lash maqsadida o'zaro uzluksiz ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Dastlab, sifatli kontent-tahlil metodi yordamida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limni modernizatsiyalash, iqtisodiyotni raqamlashtirish va investitsiya loyihalari natijadorligini oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlari hamda strategik dasturlari chuqur o'rganilib, sohaning konseptual-huquqiy asosi belgilab olindi.

Ushbu poydevorga tayangan holda, tadqiqotning keyingi bosqichida tizimli va qiyosiy tahlil metodi qo'llanildi; bunda mahalliy oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy va boshqaruv yo'nalishlaridagi amaldagi o'quv rejalari hamda fan sillabuslari dunyo miqyosida tan olingan IPMA va PMI, PMBOK xalqaro standartlari talablari bilan qiyoslanib, milliy ta'lim tizimidagi metodologik va amaliy nomutanosibliklar aniqlandi. Mazkur nomutanosibliklarni chuqurroq tasniflash maqsadida guruhlash metodidan foydalanilib, loyiha menejerining

professional ko'nikmalari funktsional-texnik va shaxsiy-boshqaruv kompetensiyalariga ajratildi hamda ularning o'quv dasturlaridagi o'zaro ulushi tahlil etildi.

Nazariy xulosalarning amaliyot bilan uzviyligini ta'minlash va mehnat bozorining real talablarini baholash maqsadida ekspert baholash metodi (Expert Judgment Method) qo'llanildi. Bu bosqichda investitsiya va raqamlashtirish loyihalarida bevosita faoliyat yuritayotgan 20 nafardan ortiq amaliyotchi mutaxassislar hamda soha ekspertlari o'rtasida maqsadli so'rovnomalar o'tkazilib, olingan sifat va miqdoriy natijalar umumlashtirildi. Tadqiqotning empirik ma'lumotlar bazasini O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy ko'rsatkichlari, PMI va IPMA xalqaro assotsiatsiyalarining global hisobotlari hamda mahalliy OTMlarning statistik hisobotlari tashkil etdi. To'plangan barcha ma'lumotlar mantiqiy va deduktiv umumlashtirish metodlari yordamida qayta ishlanib, loyiha menejerlarini tayyorlashning yangi integratsiyalashgan modeli uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qildi.

Natijalar va tahlil

O'tkazilgan qiyosiy va tizimli tahlillar hamda soha ekspertlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, mahalliy oliy ta'lim muassasalarida loyiha menejerlarini tayyorlash samaradorligi va mehnat bozorining real talablari o'rtasida sezilarli uzilish mavjud. Xususan, ekspertlarning 73 foizi oliy ma'lumotli yosh mutaxassislarda loyihani texnik rejalashtirish bo'yicha nazariy bilimlar yetarli bo'lsa-da, real inqirozli vaziyatlarda jamoani boshqarish (soft skills) va maxsus dasturiy muhitlarda ishlash ko'nikmalari juda past darajada ekanligini ta'kidlaganlar.

Mazkur muammoni bartaraf etish va dissertatsiya tadqiqotimiz doirasida loyiha menejerlarini tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida, xalqaro IPMA va PMI PMBOK (jarayonli yondashuv) standartlarini o'zaro integratsiya qiluvchi "3D Kompetensiyaviy Ta'lim Modeli" ishlab chiqildi. Ushbu model talabalarda bilimlarni shunchaki yodlash emas, balki ularni uchta o'lchamda sinxron rivojlantirishni ko'zda tutadi.

1-jadval.

Loyiha menejerlarini tayyorlashning integratsiyalashgan 3D kompetensiyaviy ta'lim matritsasi

Kompetensiya o'lchami (Bloki)	Xalqaro standart asosi (IPMA / PMBOK)	OTM o'quv jarayoniga tatbiq etish mexanizmi	Baholash indikatori va kutilayotgan natija
1. Texnik va Funktsional (Contextual Hard Skills)	PMBOK 7th Edition: Loyihaning hayotiylik sikli, muddat, byudjet, sifat va risklar menejmenti.	O'quv rejasiga MS Project, Primavera P6 va Jira dasturlarini majburiy laboratoriya mashg'uloti sifatida kiritish.	Talabaning amaliy Keys-stadi (Case-study) asosida real loyihaning WBS (ishlarni taqsimlash strukturasi) va Gantt grafigini mustaqil tuza olishi.
2. Shaxsiy va Boshqaruv (Behavioral Soft Skills)	IPMA ICB4: Yetakchilik (Leadership), jamoani motivatsiyalash, muzokaralar olib borish, stressga	Dars jarayonlariga "Agile/Scrum simulyatsiyalari" va interaktiv rolli o'yinlarni, jamoaviy loyiha himoyalarini joriy etish.	Talabaning jamoaviy ishlash qobiliyati, inqirozli (vaqt tanqisligi) sharoitda qaror qabul qilish tezligi va samaradorligi.

	chidamlilik va konfliktlarni boshqarish.		
3. Strategik va Biznes (Perspective Skills)	IPMA & PMBOK: Korporativ boshqaruv, investitsiya jozibadorligi, bozor konyunkturasi va ESG (ekologik va ijtimoiy boshqaruv) tamoyillari.	"Investor Relations (IR)" fanini kiritish, talabalarni real ishlab chiqarish korxonalarida strategik dual ta'limga jalb qilish.	Bitiruvchining loyihani shunchaki texnik bajaruvchisi emas, balki kompaniya biznes-strategiyasiga moslashtira oluvchi strategik menejer bo'lib yetishishi.

Manba: O'tkazilgan tadqiqot va ekspert so'rovnomalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan ushbu 3D matritsaning an'anaviy ta'lim dasturlaridan asosiy farqi va afzalligi shundaki, unda har bir o'quv bobi xalqaro professional sertifikatlash (masalan, PMI-CAPM yoki IPMA Level D) talablari bilan 85 foizgacha muvofiqlashtirilgan.

Tahlillarimizga ko'ra, ushbu modelni OTMlar amaliyotiga joriy etish quyidagi iqtisodiy va uslubiy samaradorlikni beradi:

1. Vaqt va xarajatlar optimallashuvi: Bitiruvchi kadrlarni ishlab chiqarish korxonalarida qayta o'qitish va moslashish (adaptatsiya) davri hozirgi 6-9 oydan 1-2 oygacha qisqaradi.

2. Mehnat bozorida raqobatbardoshlik: Talabalar universitet diplomini olish bilan bir vaqtda xalqaro sertifikatlarga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa milliy korxonalarga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiya loyihalarini boshqarishda mahalliy kadrlardan foydalanish ulushini kamida 35 foizga oshiradi.

3. Loyihalar natijadorligi (ROI): Xalqaro andozalar asosida tayyorlangan loyiha menejerlari hisobiga korxonalarda loyihalarning byudjetdan chiqib ketish holatlari (risklar) o'rtacha 18-20 foizga kamayishi prognoz qilinmoqda.

Shunday qilib, loyiha menejerlarini tayyorlash samaradorligini oshirish shunchaki nazariy fanlar soatlarini ko'paytirish bilan emas, balki ta'lim dasturlarini PMBOK va IPMA standartlarining funktsional, boshqaruv va biznes ko'nikmalari zanjiri asosida tubdan qayta qurish (reinjiniring qilish) orqali amalga oshirilishi lozimligi ilmiy jihatdan isbotlandi.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda loyiha menejerlarini tayyorlash samaradorligini oshirish va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etish natijasida milliy ta'lim tizimi va mehnat bozori infratuzilmasini tubdan isloh qilishga qaratilgan qator fundamental xulosalar shakllantirildi. O'tkazilgan tizimli tahlillar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal transformatsiyalashuvi hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi sharoitida oliy ta'lim muassasalarida loyiha boshqaruvi kadrlarini tayyorlashning amaldagi uslubiyoti real bozor talablaridan orqada qolmoqda. An'anaviy ta'lim dasturlarida hanuzgacha ko'proq nazariy va funksional menejment qoliplariga tayanilayotgani sababli, bitiruvchi yosh mutaxassislar real ishlab chiqarish va biznes muhitiga moslashishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ayniqsa, talabalarda loyihaning byudjeti, muddatlari va xavf-xatarlarini matematik hamda raqamli modellashtirish kabi texnik ko'nikmalar (hard skills) bilan bir qatorda, inqirozli

vaziyatlarda qaror qabul qilish, jamoani safbar etish va muzokaralar olib borish kabi shaxsiy-boshqaruv qobiliyatlari (soft skills) tizimli ravishda shakllanmayotgani aniqlandi.

Ushbu uslubiy bo'shliqni bartaraf etishda jahon miqyosida o'z samaradorligini to'liq isbotlagan PMI (PMBOK) va IPMA xalqaro standartlarining konseptual modellarini o'zaro integratsiyalashgan holda oliy ta'lim jarayoniga tatbiq etish eng maqbul strategik yechim hisoblanadi. Tadqiqot doirasida ilgari surilgan "3D Kompetensiyaviy Ta'lim Modeli" shuni ilmiy jihatdan asoslab beradiki, bo'lajak loyiha menejerini tayyorlash samaradorligi faqatgina o'quv soatlarini ko'paytirish bilan emas, balki talabaning texnik, shaxsiy va strategik-biznes bilimlarini sinxron tarzda rivojlantirish orqali ta'minlanadi. Ushbu integratsiyalashgan yondashuv universitet dasturlarini xalqaro professional sertifikatlash talablari bilan kamida 80-85 foiz darajasida muofiqlashtirishni taqozo etadi. Natijada, bitiruvchi yosh mutaxassislarning ishlab chiqarish korxonalaridagi adaptatsiya, ya'ni amaliy faoliyatga moslashish davri hozirgi 6-9 oydan 1-2 oygacha qisqaradi va bu jarayon korxonalar uchun inson resurslarini qayta o'qitish xarajatlarini sezilarli darajada optimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, oliy ta'lim dasturlariga "Investor Relations (IR)" modullari va ESG tamoyillarining singdirilishi bo'lajak menejerlarning nafaqat texnik ijrochi, balki kompaniyalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik yetakchi bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Tadqiqotning amaliy natijalaridan kelib chiqqan holda, milliy miqyosda loyiha menejerlarini professional tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator strategik tavsiyalar ilgari suriladi. Birinchi navbatda, iqtisodiyot va menejment yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining fan sillabuslarini PMI va IPMA imtihonlari talablariga moslashtirish va talabalarga o'qish davrida CAPM yoki IPMA Level D kabi xalqaro sertifikatlarni olish uchun maxsus imtiyozli akademik mexanizmlarni yaratish lozim. Ikkinchidan, o'quv jarayonidagi an'anaviy passiv ma'ruzalar ulushini tubdan qisqartirib, uning o'rniga loyihalarni boshqarishning zamonaviy raqamli dasturiy majmualari, xususan, MS Project, Primavera P6, Jira va Asana platformalari bo'yicha majburiy laboratoriya hamda amaliy mashg'ulotlar infratuzilmasini rivojlantirish zarur. Uchinchidan, talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholashda quruq yodlashga asoslangan test tizimidan butunlay voz kechib, real mahalliy va xalqaro investitsiya loyihalarining inqirozli keyslariga hamda jamoaviy biznes-simulyatsiyalariga asoslangan loyiha himoyalari amaliyotini joriy etish talab etiladi. Yakuniy bosqichda esa, mahalliy universitetlar bilan yirik tarmoq korxonalari hamda xalqaro loyiha boshqaruvi assotsiatsiyalarining O'zbekistondagi vakolatxonalari o'rtasida strategik dual ta'lim hamkorligini yo'lga qo'yish lozim. Ushbu tavsiyalarning kompleks ravishda amaliyotga tatbiq etilishi, iqtisodiyotimiz tarmoqlarida investitsiya va raqamlashtirish dasturlarining xavf-xatarlarini 18-20 foizga kamaytirishga hamda xorijiy investitsiya loyihalarini boshqarishda yuqori malakali milliy kadrlarimiz ulushini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y.
2. Aliev, K.A., 2024. O'zbekistonda innovatsion loyihalarni boshqarishda kadrlar salohiyatini oshirish masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, (3), pp.45-52.
3. Archibald, R.D., 2003. Managing High-Technology Programs and Projects. 3rd ed. New York: John Wiley & Sons.
4. Gulyamov, S.S., 2021. Raqamli iqtisodiyotda loyihalarni boshqarish tizimi. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.

5. International Project Management Association, 2015. Individual Competence Baseline for Project, Programme & Portfolio Management (IPMA ICB, Version 4.0). Zurich: IPMA.
6. Karimov, I.A., 2023. Oliy ta'limda menejment kadrlarini tayyorlash samaradorligini oshirish mexanizmlari. Biznes-ekspert jurnali, 14(2), pp.18-25.
7. Kerzner, H., 2017. Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. 12th ed. Hoboken: John Wiley & Sons.
8. Project Management Institute, 2021. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK Guide). 7th ed. Newtown Square, PA: Project Management Institute.
9. Raximov, Sh.K., 2023. Investitsiya loyihalarini boshqarishda kadrlar malakasini baholashning xalqaro usullari. Moliya va bank ishi jurnali, (4), pp.112-118.
10. Tojiev, R.R., 2022. Investitsiya loyihalarini boshqarishda inson kapitalidan foydalanish samaradorligi. O'zbekiston iqtisodiyoti axborotnomasi, (5), pp.89-94.
11. Turner, J.R., 2014. The Handbook of Project-based Management: Leading Strategic Change in Organizations. 4th ed. New York: McGraw-Hill Education.